ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

ABU ALI IBN SINO-TABOBAT ILMINING SULTONI

Jumaeva Nilufar Axmatovna
BuxDu Arxeologiya Buxoro tarixi kafedrasi
katta o'qituvchisi

Boymuratova Marjona Tura qizi
BuxDu 4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20352360

Annotatsiya : Mazkur maqolada Abu Ali Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi boy ilmiy merosi keng yoritilgan. Unda allomaning tabobat ilmiga qo'shgan hissasi, xususan, uning mashhur "Al-Qonun fit-tibb" asarining tuzilishi, mazmuni va ilmiy ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, Ibn Sinoning kasalliklarni aniqlash, davolash usullari, dori-darmonlar haqidagi qarashlari hamda profilaktika va sog'lom turmush tarziga oid fikrlari bayon qilingan. Maqolada allomaning nazariy va amaliy tibbiyotga oid ishlari, urjuzalari va risolalari haqida ham ma'lumot berilib, ularning bugungi zamonaviy tibbiyot rivojidagi o'rni asoslab beriladi. Shu bilan birga, Ibn Sinoning ilmiy merosining tarixiy va hozirgi zamon uchun dolzarbligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar : Ibn Sino, tibbiyot, ilmiy meros, ,,Al-Qonun fit-tibb" , urjuzalar, kasalliklar, davolash usullari, diagnostika, profilaktika, Sharq tabobati, Notiliy,Al-Qumriy ,Nuh ibn Mansur

Kirish: Bugungi kunda jahon ilm-fani va tibbiyot taraqqiyotida buyuk allomalar merosini o'rganish va uni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday ulug' siymolardan biri Abu Ali ibn Sino bo'lib, u o'zining bebaho ilmiy merosi bilan nafaqat Sharq, balki butun jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Ayniqsa, uning tibbiyot sohasidagi ilmiy qarashlari, kasalliklarni aniqlash va davolash usullari bugungi zamonaviy tibbiyotning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Ibn Sinoning tibbiyotga oid asarlari, xususan "Al-Qonun fit-tibb" asari asrlar davomida dunyoning ko'plab mamlakatlarida asosiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Ushbu asarda inson salomatligi, kasalliklarning kelib chiqish sabablari, ularni davolash usullari hamda profilaktika choralariga oid muhim ilmiy fikrlar bayon etilgan. Shu bois, allomaning ilmiy merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham buyuk ajdodlarimiz merosiga alohida e'tibor qaratib shunday ta'kidlaydi: "Buyuk alloma va mutafakkirlarimizning bebaho ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish - bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir".[1]Ushbu fikr Ibn Sino kabi allomalarning ilmiy merosini o'rganish naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

ASOSIY QISM

Buyuk qomusiy olim ,tabobat ilmining sultoni bo'lmish Abu Ali Ibn Sino (to'liq ismi Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sinodir) o'zidan keyingi avlod uchun ulkan ilmiy meros qoldirdi.Ibn Sino hech qanday harakatlarsiz o'z-o'zidan tabib bo'lib qolgan emas.Uning oilaviy muhiti ham ,otasi Abdullohning mehnatlari sa'y harakatlari ,farzandlarining yaxshi kamol topishlari uchun qilgan harakatlari natijasidir.Husaynning dastlabki ilm-fandagi ustozi Abu Abdulloh Notiliy ham uning tibbiyotga qiziqishini, bu borada u qobiliyatli ekanligini otasi Abdullohga ham bildirgan edi.Ibn Sinoning tabobat ilmidagi dastlabki ustozi Al-Qumriydir. Bu kishi Somoniylar saroyida tabib bo'lib faoliyat yuritgan.Yosh Husayn esa deyarli har kuni Al-Qumriyning darslariga qatnar uni diqqat bilan tinglar edi ,u tomonidan yozilgan deyarli barcha asarlarini o'qib ,o'rganib chiqqan edi.Shunday qilib Ibn Sino tibbiyot ilmini chuqur o'rganib ,nafaqat Sharq olamida , balki G'arb olamida ham mashhur tabib bo'lib yetishdi.O'zidan boy ilmiy meros qoldirdi.Ibn Sino tomonidan yozilgan asarlar soni turli xil

[1] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk ajdodlar merosini o'rganish va targ'ib etish haqida nutqlaridan. – Toshkent, 2017.

manbalarda turli xil raqamlar bilan uchraydi.Misol uchun arab olimlaridan biri bo'lgan Qanavotiy uning jami 336 ta asari borligi haqida ma'lumotlar keltirgan.Eron olimi Mahdaviy esa 242 ta ekanligini qayd etsa ,yana bir eronlik olim Said Nafisiy uning asarlari soni 456 ta ekanligini keltirib o'tadi.Shunday bo'lsa-da Ibn Sino tomonidan yozilgan asarlar soni jami hisobda 450 dan ortiq ,lekin shulardan bizgacha yetib kelganlarining soni esa juda ko'p manbalarda 242 tani tashkil etadi.Shulardan 43 tasi tabobatga doir asarlardir. Eng mashhur asari ,,Kitob al -qonun fit tibb" dir .Bu asar 1012-1023 yillarda yozilgan .Ushbu asari hattoki Yevropada ham XII asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, 40 marotaba nashr etilgan.,,Tib qonunlari" ni Jurjondaligi vaqtida yozishni boshlagan. Bu asar 5 ta asosiy kitobdan iborat.

Bular;

Birinchi kitob -bunda tibbiyotning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida ma'lumot keltirilgan.Tabobat ilmining ta'rifi haqida,uning vazifalari ,xilt va mizoj haqidagi ta'limot bayon etiladi. Bundan tashqari , inson tanasining oddiy a'zolari - suyak ,tog'ay ,asab ,arteriya ,vena,pay kabilar haqida ham qisqacha ma'lumotlar keltiriladi.Kasallikning kelib chiqish sabablari ,ko'rinishlari ,haqida batafsil bayon etiladi.

Ikkinchi kitobda-o'sha davrda qo'llanilgan dori -darmonlar haqida ma'lumotlar mavjud.Bundan tashqari o'simlik va hayvonlardan olinadigan 811 ta dori -darmonlar ta'rifi ,ularning xususiyatlati keltiriladi.

Uchinchi kitobda - Inson tanasining boshidan tovonigacha bo'lgan mahalliy va xususiy kasalliklar haqida ma'lumotlar mavjud.

To'rtinchi kitobda - Inson a'zolarining bitortasiga xos bo'lmagan ,,umumiy" kasalliklarga bag'ishlangan.

Beshinchi kitobda- asosan murakkab tartibli dori -darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilinadi.[2]

Ibn Sino o'zining ,,Tib qonunlari" asarini boshlashda tibbiyot ilmini shu tarzda tavsiflaydi: ,, Tib shunday bir ilmki ,u bilan odam gavdasining ahvoli sog'liq va kasallik jihatidan o'rganilib ,uning mavjud sog'ligi saqlanadi va yo'qotilgani qaytariladi ".[3]

Abu Ali Ibn Sinoning yana bir nazmiy tibbiyotga oid asari ,,Urjuza fit-tibb" hisoblanadi. Bu asarda tabobat sohasiga ta'rif berar ekan quyidagi jumlalarni keltirib o'tadi : ,,Tabobat - bu salomatlikni saqlash va kasalliklarni davolashdan iborat".

Ibn Sino amaliy tibbiyotni ikkiga bo'ladi.Bulardan biri ,sog'lom tananing rejimi ,ya'ni salomatlikni saqlashga qaratilgan tadbirlar bo'lsa, ikkinchisi esa , nosog' tananing rejimidir.Bunda organizmning o'zini normal holatiga qaytarishni ko'zda tutadi. [4] Ibn Sinoning ,Tibbiy Urjuza'' si jami hisobda 1326 bayt (2652 misra) dan iborat. Bu kitob dastavval talabalar uchun tibbiyot sohasini o'rganish maqsadida darslik sifatida yozilgan . Bu asar ,,Tib qonunlari'' dan sira qolishmaydi ,bunda ham tibbiyotning nazariy masalalari haqida ma'lumotlar mavjud. ,,Tib qonunlari'' da keltirilgan mavzu va masalalar ,,Urjuza'' da qisqacha keltirilgan . ,,Tibbiy Urjuza'' ikkita bo'limdan tashkil topgan bo'lib ,birinchi bo'limda asosan , tibbiyotning umumiy masalalari haqida , uning tafsiri ,qismlari, unsurlar ,a'zolar haqida ma'lumotlar keltiriladi.Ikkinchi bo'lim esa ko'proq amaliyotga bag'ishlangan .

Ibn Sinoning ,,Tibbiy Urjuza'' sidan tashqari ,tibbiyotga oid bir necha she'riy ,,Urjuza" kitoblari bo'lgan. Shulardan bizga ma'lumlari quyidagilar:

– ,, Tana tuzilishiga oid urjuza" kitobi (98 baytdan iborat)
– ,,Jinsiy mayllik haqida urjuza"
– ,,Sog'liqni saqlash haqida tibbiy urjuza" (15 baytdan iborat)
– ,, Yilning to'rt fasli haqida tibbiy urjuza" (121 bayt)

---

[2] Nurboyev.F.E ,Tilloyeva .Sh, Sh ,Raxmatova D.B ,,Ibn Sino ta'limoti " o'quv qo'llanma .-- Buxoro 2019 16-17 b

[3] Abu Ali Ibn Sino ,,Tib qonunlari " saylanma – Toshkent , Xalq merosi ,1993 – 11 b

[4] A.A.Qodirov , U.T.Soipov ,,Abu Ali Ibn Sino O'rta Osiyolik buyuk medik olim " ,-- Toshkent ,,Meditsina " 1980 , 91 b

– „ Sinab ko'rilgan dori -darmonlar haqida tibbiy urjuza"
– „ Gippokratning vasiyatlari haqida urjuza " (93 bayt)
– „ Tibbiy maslahatlar haqida urjuza" (72 baytdan iborat).[5]

Tibbiyotga oid yana bir muhim asarlaridan biri „ Salomatlikni saqlash haqida risola" asaridir. Bu kitob 13 bobdan iborat bo'lib asosan , shaxsiy gigiyena masalalariga bag'ishlanadi.Abu Ali Ibn Sino o'z davridagi deyarli barcha tibbiy bilimlarni mukammal egallagan hamda u yoshligidan bemorlani ko'rib ularga dorilar yozib berish bilan shug'ullangan.

Ibn Sino tomonidan yozilgan „Tadbirda yo'l qo'yilgan har xil xatolarga qarshi chora ko'rish orqali inson badaniga yetishgan turli zararlarni yo'qotish " nomli risolasi o'z zamonasining ilmli , ma'rifatparvar kishilaridan bo'lgan Abul Hasan as-Sahliyga bag'ishlab yozilgan .Bu risola asosan Ibn Sinoning gigiyenik qarashlari haqida. „Tomir urushi " haqida ham risola yozgan .Bu risolaning yozilishiga sabab sifatida Alouddavlaning tomir urushi bilan bog'liq kitob yozib berishini iltimos qilganini ko'rsatadi.Shu tariqa bu risolani 1021 yilda fors tilida yozadi.Jami hisobda 9 fasldan iborat.[6] Ibn Sino ilmiy merosida bunday risolalar juda ham ko'plab uchraydi.

Ibn Sino tibbiyotga ,inson salomatligiga doir bo'lgan o'gitlarni ham aytib o'tgan .Bunday o'gitlardan bir nechtasini misol tariqasida keltiramiz:

Chaynashda tishlar ojiz–
Bo'lgan taomni yutma,
Taomning yomoni bu ,
Qoringa bo'lgay ofat.
Kun aro hammom tushmoq
Odatin tark aylama,
Taning topar parvarish ,
Yurursan sog' -salomat.
Dori-darmon ichmoqqa
O'zingni ko'p o'rgatma,
Dori ichish nojoiz,
Yetmasdan katta illat .[7]

Abu Ali Ibn Sino asosan, bemorlarni davolashda uch narsaga - tartib (parhez) ,dorilar bilan davolash va turli tibbiy tadbirlarni qo'llashga ahamiyat bergan.U har doim kasallikni davolash jarayonida parhez qilish eng muhim omil ekanligini aytib o'tadi.Somoniylar amiri hisoblangan Nuh Ibn Mansur ham og'ir betob bo'lib qolganlarida aynan shu parhez orqali davolagan .

XULOSA

Abu Ali ibn Sinoning tibbiyotga oid ilmiy merosi jahon ilm-fani tarixida beqiyos ahamiyatga ega. U yaratgan ilmiy asarlar, xususan, "Al-Qonun fit-tibb" asari o'z davrida nafaqat Sharq mamlakatlarida, balki Yevropa tibbiyotida ham asosiy qo'llanma sifatida xizmat qilgan. Alloma kasalliklarni aniqlash, ularning kelib chiqish sabablari va davolash usullarini ilmiy asosda izohlab, tibbiyot fanining rivojiga mustahkam poydevor yaratgan.

Ibn Sino tomonidan ilgari surilgan gigiyena, profilaktika, to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi haqidagi qarashlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Ayniqsa, uning kasalliklarning oldini olishga qaratilgan yondashuvi zamonaviy tibbiyotning muhim yo'nalishlari bilan uyg'unlashadi.Shuningdek, allomaning ilmiy izlanishlari faqat amaliy tibbiyot bilan cheklanib qolmay, balki inson organizmini chuqur o'rganish, ruhiy va jismoniy salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga

[5] Matkarimova S.M. , Raximova Z.M , Allanazarov Sh .F „ Abu Ali Ibn Sino Xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asoschisi " - Urganch , „Xorazm nashr matbaa" 2020 - 34 b

[6] U.I.Karimov ,H.Hikmatullayev , M.M.Xayrullayev „Salomatlik sirlari" –Toshkent „Xalq merosi" - 2000 , 9-14 b

[7] Abu Ali Ibn Sino .Lirika .-www.ziyouz.com kutubxonasi

ham xizmat qilgan. Bu esa Ibn Sinoning qomusiy olim sifatida naqadar keng qamrovli bilimga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk ajdodlar merosini o‘rganish va targ‘ib etish haqida nutqlaridan. – Toshkent, 2017.
2. Abu Ali Ibn Sino „Tib qonunlari “ saylanma – Toshkent , Xalq merosi ,1993.
3. A.A.Qodirov , U.T.Soipov „Abu Ali Ibn Sino O’rta Osiyolik buyuk medik olim “ ,-- Toshkent „Meditsina “ 1980.
4. Matkarimova S.M. , Raximova Z.M , Allanazarov Sh .F „ Abu Ali Ibn Sino Xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asoschisi “ - Urganch , „Xorazm nashr matbaa” 2020.
5. 2.Nurboyev.F.E ,Tilloyeva .Sh, Sh ,Raxmatova D.B „Ibn Sino ta’limoti “ o’quv qo’llanma .-- Buxoro 2019.
6. U.I.Karimov ,H.Hikmatullayev , M.M.Xayrullayev „Salomatlik sirlari” –Toshkent „Xalq merosi” – 2000.
7. 7Abu Ali Ibn Sino .Lirika .-www.ziyouz.com kutubxonasi